

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZR FA ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT  
MUZEYI**

**MATYOQUBOVA GO‘ZAL RAJAPOVNA**

**RAUF PARFI ASARLARI QO‘LYOZMALARINING MATNIY- QIYOSIY  
TADQIQI**

**10.00.10 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on philological sciences**

**Matyoqubova Go'zal Rajapovna**

Rauf Parfi asarlari qo'lyozmalarining matniy-qiyosiy tadqiqi ..... 3

**Matyokubova Guzal Rajapovna**

Sravnitelno-tekstovoe izuchenie rukopisey proizvedeniy Rauf Parfi .....28

**Matyokubova Guzal Rajapovna**

Text-comparative study of manuscripts of Rauf Parfi's works ..... 52

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

**Spisok o'publikovannix rabot**

**List of published works .....57**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZR FA ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT  
MUZEYI**

**MATYOQUBOVA GO‘ZAL RAJAPOVNA**

**RAUF PARFI ASARLARI QO‘LYOZMALARINING MATNIY -  
QIYOSIY TADQIQI**

**10.00.10 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2021.3.PhD/Fil2020 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (<http://www.tsuull.uz>) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Eshonqulov Jabbor Soliyevich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponenlar:**

**Jabborov Nurboy Abdulhakimovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Qasimov Yashar Aliquli o‘g‘li**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat  
pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «\_\_\_» \_soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (<http://www.tsuull.uz>).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; (<http://www.tsuull.uz>).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_da tarqatildi. (2022-yil \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_raqamli reestr bayonnomasi).

**H.A. Dadaboyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
filol.f.d., professor

**Q.U.Pardayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, filol.f.d., professor

**R.F.Zohidov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi o‘rinbosari  
filol.f.d., professor

## **KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligi inson ruhiyati, uning his-tuyg'ularining asosiy obyekti hisoblangan adabiyot fanining taraqqiyoti misolida yuksak darajaga ko'tarildi. Olimlar koinot sir-asrorlarini o'rgangani kabi inson ichki olamini, uning emotsional va psixologik xususiyatlarini kashf etish jarayoni ham nihoya bilmaydigan qalb va aql mehnatini talab etmoqda. Bu esa o'z navbatida jahon va o'zbek adabiyoti namunalarini tadqiq etishda tamoman yangi, ko'p qirrali ilm bilan tavsiflanadigan tadqiqot tamoyillari zarurligini taqozo etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida matnshunoslik va adabiy manbashunoslik fani nazariy va amaliy jihatdan ilg'or tendensiyalarni ilgari surmoqda. Bugungi kunda bu sohada manbalarni aniqlash, ularning to'g'ri o'qilishi va talqin qilinishini ta'minlash, qo'lyozmalardagi nomuvofiqlik va tafovutlarni o'rganish, matn tahririni tahlil qilish malakasini shakllantirish zamonaviy matnshunoslik va manbashunoslik fanining dolzarb masalalaridan biridir.

O'zbekistonda matnshunoslik va adabiy manbashunoslik sohasida keng ko'lamlı tadqiqotlar amalga oshirildi, zamonaviy matnshunoslik uning bir bo'g'ini sifatida taraqqiy etdi. Biroq matnshunoslik va adabiy manbashunoslik fani oldida turgan dolzarb masalalar har doim muhim hisoblanadi. Matnshunoslik va adabiy manbashunoslikning mumtoz adabiyot qo'lyozma matnlarini yig'ish, o'rganish, ilmiy tavsiflash va tadqiq etishda kishini o'ziga tortadigan jihatlar talaygina. Oradan o'tgan yil va masofaning kattaligi, mumtoz ijodkorlarga zamondosh bo'lganlarning oramizda yo'qligi, qo'lyozmalarining xat-savodi turli darajada bo'lgan xattotlar tomonidan ko'chirilganligi, sahıh qo'lyozmani topib amaliyotga tatbiq qilishning murakkabligi mumtoz adabiyot tadqiqotchilaridan ma'naviy-ma'rifiy jasorat talab etadi. Mumtoz adabiyot matnshunosligi va adabiy manbashunosligida ilg'or taraqqiyot natijalari qayd etilgani holda zamonaviy matnshunoslik va manbashunoslik yo'nalishida ham bu holni kuzatish mumkinmi, degan savol tug'iladi. Ijodkorning bizga zamondoshligi va siyohi qurib ulgurmagan qo'lyozmalarining qaysi biriga qanday o'zgartish va tuzatishlar kiritilganining u qadar tadqiqqa ehtiyoji yo'qday tuyulishi mumkin. Aslida zamonaviy ijodkorlar qo'lyozmalarining o'z vaqtida to'laqonli o'rganilishi vaqt o'tishi bilan yuzaga keladigan jiddiy xato va qusurlarning oldini olishga xizmat qiladi. Bu yo'nalishda bir jihat – ijodkor qo'lyozmalarining iste'molimizdagi alifboda ekanligi, tadqiqotchiga yengillik beradi. Bu imtiyozdan to'g'ri foydalanib, qo'lyozmalar o'z vaqtida to'laqonli va shubhalarga o'rin qoldirmaydigan darajada tadqiq etilsa, ularning kelajak avlodga nuqsonsiz yetib borishi kafolatlanishi mumkin. Manba tadqiqotga tortilar ekan, muallifning qo'lyozmalarga kiritgan tuzatishlari, o'zgartirishlari va o'z qo'li bilan tartib bergan kitob nashri qiymatli manba hisoblanadi. Matnshunosning qo'lyozma bilan munosabatga kirishishidagi asosiy etap qo'lyozma manbani his qilgan nuqtadan boshlanadi. Zamonaviy o'zbek she'riyatini shakliy-uslubiy yangilanishi O'zbekiston xalq shoiri Rauf Parfining shaxsi va she'riyati misolida o'zini namoyon etadi. Uning shaxsi va she'riyati o'rtasidagi chegaralar tadqiq etilganda, arxiv qo'lyozmalari muhim manba sifatida xizmat qiladi. Muallif dastxatidagi daftarlar, o'zi yasab, muqovalagan qo'likitob nashrlar va chop etilgan kitoblariga kiritilgan she'rlari orasidagi tafovutlar va nomuvofiqliklar Rauf Parfi adabiy merosini tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PQ–2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ–2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 24-maydagi PQ–2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiqi va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 19-oktyabrdagi PQ–4865-son “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”, 2023-yil 25-yanvardagi PQ–20-son “Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi, 2018-yil 5-apreldagi PQ–3652-son “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-avgustdagi O‘zbekiston ijodkor vakillari bilan bo‘lgan uchrashuvdagi ma‘ruzasi, 2020-yil 20-mayda Toshkent shahrida Adiblar xiyoboniga tashrifi chog‘ida adabiyotning ta‘sir kuchini oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbek zamonaviy she‘riyati namoyandasi bo‘lgan Rauf Parfi she‘riyatining o‘ziga xos poetik xususiyatlari, badiiy obrazlari dinamikasi, g‘oyaviy-ijtimoiy jihatlarini XX asr o‘zbek she‘riyatining imkoniyatlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq o‘zbek matnshunosligi va adabiy manbashunosligi nuqtayi nazaridan ijodkorning arxiv materiallari hozirga qadar maxsus tadqiqot obyekti bo‘lgan emas va matnshunoslik aspektida o‘rganilmagan.

O‘zbek zamonaviy she‘riyatining yorqin vakili Rauf Parfi she‘riyatining badiiy xususiyatlari o‘zbek va jahon adabiyotshunosligida bir qadar tadqiqotga tortilgan. Rauf Parfi she‘riyatining turk olimlari tomonidan izchil tadqiq etilgani, Istanbulda chop etiladigan “Türk edebiyati” jurnalining 2022-yil oktyabr soni to‘liq Rauf Parfi she‘riyatiga bag‘ishlangani bilan e‘tiborga molikdir<sup>1</sup>.

Jahon adabiyotshunosligida Hikmat Korash, Yashar Qosimov, Husayin Bargan, Tohir Qahhor, Temur Xojaog‘li, Ahmat Bijan Erjilasun, Kamol Yovuz Ataman, Mehmet Hazar, Reychel Harrell va Sanjar Yanishev<sup>2</sup>lar Rauf Parfi she‘riyatidagi fikriy va shakliy

<sup>1</sup>Türk Edebiyatı. Aylık Fikir ve Sanat Dergisi. – İstanbul: Sutanahmet – İstanbul, 2020yil, Ekim. – 84 s.;

<sup>2</sup>Hikmet Korash. Ön Söz. // Rauf Parfi. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. Nashrga tayyorlovchi: Oltinbek O. Mas‘ul muharrirlar: Sirojiddinov Sh, Hikmet Korash. – Anqara: Bengü, 2021.–308 s.; Bargan H. Özbek Şairi Rauf Parfi. – İstanbul: Türk Edebiyatı Eylül, 2005 – 84 s.; Kahhar T. Özbek Halk Edebiyatı. Türkiye Dışındaki Türk Edebiyatları Antolojisi. – Ankara, 2000. – 335 s.; Kocaoglu T. Özbek Türkleri Edebiyatı. Türk Dünyası El Kitabı Türkiye Dışı Türk Edebiyatları. – Ankara: Türk Kültürü Araştırma Enstitüsü Yayınları, 1998. – 197 s.; Ercilasun, A.B.Tarihten Geleceğe Türk Dili Yeni

yangiliklarni o'ziga xos tahlil tamoyillari asosida tadqiq etishgan.

O'zbek adabiyotshunoslaridan Baxtiyor Nazarov, Asqad Muxtor, Shukrullo, Ibrohim G'afurov, Ibrohim Haqqulov, Botirxon Akram, No'mon Rahimjonov, Nizomiddin Mahmudov, Dilmurod Quronov, Qozoqboy Yo'ldosh, Botir Norboyev, Suvon Meli, Ulug'bek Hamdam, Ilhom G'aniyev, Sanjar Sodiq, Manzar Abdulxayr, Qahhor Yo'lchiyev, Olim Oltinbek, Obida Fayzullayeva, Ilhom Qurbonboyev, Behzod Fazliddin, ijodkor va yozuvchilar Vafo Fayzullo, Mansur Tenglashev, Ahmad Otaboy, Ahmad A'zam, Nazar Eshonqul, Chori Avaz, Ravshanbek Egamberdiyev, Z. Mirzayeva, M.Xolova<sup>3</sup> Rauf Parfi she'riyatini tadqiq etishda o'ziga xos ilmiy xulosalar qilishgan.

---

Türkiye. – Ankara: Türk Dünyası Özel Sayısı I, Mayıs Haziran, 1997. – 96 s.; Kemal Yavuz Ataman. Rauf Parfi'nin münâcâtî Allah'a tövbename.Zamonaviy adabiyotni o'rganishning dolzarb masalalari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. 2022-yil, sentyabr. – Toshkent: Fan, – 186 b.; Рейчел Харрелл. Кўкламдан кўкламга// Жаҳон адабиёти.– Тошкент, 2005. - №6, – В 6; Янышев С. Тёплый модернизм, или вызов традиции. Анор-Гранат. Современная поэзия в Узбекистане. – М.: Руслана, 2009. – 305 s.;

<sup>3</sup> Назаров Б. Янгича фикрлаш муждалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1988. – № 2. – Б. 7; Мухтор А. Шеър – шоирнинг ижтимоий виждони. Мақолалар. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2011. – Б. 11; Шукрулло. Шеърятда ҳаёт нафаси // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1984. 24 февраль. - № 7; Ғафуров И. Олтин шафтолилар// Ёшлик. – Тошкент, 1984. - №3. – Б.2 ; Ҳаққулов И. Яна қахрамоннинг маънавий олами ҳақида // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1981. 7 август. - № 25; Ўша муаллиф. Тўғрилиқ – қудрат// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1988 йил. - №2. – Б. 7; Ўша муаллиф. Сўзлар – рух қанотларидир// Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1988. 17 июнь. - № 23; Ўша муаллиф. Қани, шеър сўйла абадиятдан. – Тошкент: Ёш гвардия, 1990. – 85 б.; Ўша муаллиф. Ҳиссий тафаккур шоири // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – Тошкент, 2003. 26 сентябрь. - №36; Акрам Б. Моҳият ва руҳият образлари // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1987. – №9. – Б. 5; Ўша муаллиф. Шеър – мавзун // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1989. - №2. – Б. 7; Ўша муаллиф. Шеърятнинг хуррият буржи. – Тошкент: Mumtoz so'z, 1994. – 101 б.; Акрамов Б. Руҳият мусаввири// Шарқ юлдузи. – 1994. - № 1-2. – Б.6; Н.Раҳимжонов. Маҳорат кирралари. – Тошкент: Фан, 1979. – 79 б.; Ўша муаллиф. Шеър – фикрнинг гули // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1983. - №4. – Б. 9; Ўша муаллиф. Рауф Парфи нима демоқчи? // Ёзувчи. – Тошкент, 1998. 13 май. - №5; Ўша муаллиф. Дарё мавжларига ёзилмиш ғазал // Жаҳон адабиёти. – Тошкент, 2011. - №11. – Б. 9; Ўша муаллиф. Сўз, ранглар билан суҳбат // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2012. - № 2. – Б. 7; Ўша муаллиф. Истиқлол ва бугунги адабиёт. – Тошкент: Ўқитувчи. 2012. – 112 б.; Маҳмудов Н. Туйғулар талоши // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – Тошкент, 2023. 3 ноябрь. - №43; Қуроноф Д. Шоирга ҳайкал кўяйлик. Замонавий шеърятни ўрганишнинг долзарб масалалари. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. 2023 йил, сентябрь. – Б. 6; Йўлдош Қ. Изтироб суратлари. // Хуррият. – Тошкент, 2023. 24 сентябрь. - № 35; Йўлдош Қ. Ёнги сўз. – Тошкент. Янги аср авлоди, 2006. – Б. 18; Норбоев Б. Ёдда қолган шеърлар // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1984. 16 март, - №12; Қосимов Я. Соғинчларга йўлдош юрак// Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1987. 2 октябрь, - № 40; Ўша муаллиф. Хотира қийноғи. Рауф Парфи билан суҳбат // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1988. 9 сентябрь; Ўша муаллиф. Авлоднинг изланиши // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1996. – №3. – Б. 10; Ўша муаллиф. Кетганлар ёди бу // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1992. - №7. – Б. 9; Мели С. Шеър сеҳри // Ёзувчи. – Тошкент, 1998. 15 июл. - № 7; Ҳамдам У. Шеърятнинг буюк йўлчиси. – Тошкент: Фан, 2007. - 56 б.; Абдулвахоб У(Улуғбек Ҳамдам). Тадриж. Ёзувчи. – 1998. 27 июнь. – 6 б.; Ғаниев И. Рауф Парфи Ўзгурк дунёси. Монография. – Тошкент: Мухаррир, 2021. – 732 б.; Содик С. Янги ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 2019. – 680 б.. Абдулхайр М. Хайр энди шеърятга кўмилган ҳаёт // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – Тошкент, 2023. 18 август. - № 30; Йўлчиев Қ. Лирик топохронос. – Тошкент: Фан зиёси, 2021. – Б. 223; Олтинбек О. Рауф Парфининг адабий-эстетик қарашлари. – Тошкент: Мухаррир, 2013. – 45 б.; Ўша муаллиф. Бир қушча сайрайди менинг руҳимда // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2013. - №4. – Б. 8; Ўша муаллиф. Менинг мулким – менинг сўзим // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 2013. - № 11. – Б. 6; Ўша муаллиф. Хоккунинг илк таржимони // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2016. - № 6. – Б. 12; Файзуллаева О. Ҳозирги ўзбек шеърятда сонет. – Тошкент: Турон замин зиё, 2014. – 147 б.; Ўша муаллиф. Рауф Парфи ижодида сонет // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2006. - №6. – Б. 6; Ўша муаллиф. Рауф Парфи шеърятда ассоциатив тафаккур кўринишлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. - № 11. – 10 б; Тенглашев М. Далиллаш санъати // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1984. 6 январь, - № 2; Отабоев А. Ҳар нафас – эхтирос // Ёшлик. – Тошкент, 1984. - №3. – Б. 2; Аъзам А. Кундузнинг ранги // Гулистон. – Тошкент, 1978. - №1. – Б.2; Аъзам А. Дард – ожизлик эмас // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1992. 6 август - №32; Эшонқул Н. Рауф Парфи нигоҳи. – Тошкент: Академнашр, 2014, – Б. 9.; Файзуллох В. Ҳақ ва ҳақиқат ҳаёли. – Тошкент: Мухаррир, 2022. – 445 б.; Аваз Ч. Бахтиёрлик шу эмасми? – Қарши: Насаф, 1992 – 70 б.; Эгамбердиев Р. Умр ва учлик талқини // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2021. – №7. – Б. 169; Ўша муаллиф. Шоирнинг сўзи – ўзи. Замонавий шеърятни ўрганишнинг долзарб масалалари. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2023. – Б.5; Қурбонбоев 90-йиллар шеърятда образлиқ. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2005. – 132 б.; Фазлиддин Б. Сўз салтанати. – Тошкент: Фан, 2012 – 90 б.; Ўша муаллиф. Рауф Парфи шеърятининг ўзига хослиги // Ўзбек тили ва адабиёти. –

Asqad Muxtor Rauf Parfining “Sabr daraxti” to‘plamidagi “She’r – shoirning ijtimoiy vijdoni” nomli maqolasi bilan sovet mafkurasi avjiga chiqqan bir pallada she’rga yangicha fikrlash tamoyillari asosida munosabatda bo‘lish mumkinligini isbotladi.

Adabiyotshunos Botirxon Akram “Yurak yo‘llari” kitobida Rauf Parfi ijodiy individualligini ta’min etuvchi badiiy omillar, obrazlar silsilasi, shoir she’riyatidagi nutribona, orifona, oshiqona ruh xususida etarlicha to‘xtaladi. Xususan, oshiqona she’rlarida Rauf Parfi she’riyati mumtoz adabiyot namunalari bilan uyg‘unlik kasb etganligini ta’kidlaydi<sup>4</sup>.

Tadqiqotchi Gulruxsor Suyarovaning e’tirof etishicha, Rauf Parfi hayotlik chog‘ida chop etilgan maqolalar soni 70 dan ortiq<sup>5</sup>. Shuningdek, Rauf Parfi ijodi va shaxsiyatini tahlil etuvchi tadqiqotlar, ilmiy monografiyalar muntazam chop etilgan. Bugungi kunda Rauf Parfi shaxsi va she’riyatiga aloqador maqola va ilmiy tadqiqotlar sonini yuztadan ziyod ekanligini e’tirof etish zarur. Dissertatsiyani yozishda o‘zbek va chet el adabiyotshunoslarining nomlari qayd etilgan tadqiqotlariga tayanildi va zarurat darajasida ulardan foydalanildi.

Rauf Parfi she’riyatining poetik xususiyatlari o‘rganilgani holda shoir arxivi va qo‘lyozmalari, chop etilmagan she’rlarining matniy-qiyosiy tadqiqi amalga oshirilgan emas. Tadqiqot Parfi she’rlarining aniq va konkret manbalar asosida o‘rganilgani, ishga konseptual yondashib, qiyosiy-matniy tadqiqi amalga oshirilgani, qo‘lyozmalar va bosma nashrlar orasidagi tafovutlarga matn tabiatidan kelib chiqib yondashilgani, poetik va til xususiyatlarining to‘laonli tadqiqi bilan avvalgi ilmiy ishlardan farqlanadi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi ilmiy tadqiqot rejasiga muvofiq “XX asr o‘zbek adabiyoti” va “Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti” mavzulari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Rauf Parfi asarlarining qo‘lyozma va nashr nusxalarini matniy-qiyosiy tadqiq etish, matn tarixi, shoirning ijod laboratoriyasi, talqin va tahrir muammolarini o‘rganish, Rauf Parfi she’rlarining adabiyotimiz tarixi va zamonaviy adabiy jarayonda tutgan o‘rnini ochib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

shoir hayoti va ijodiga oid barcha manbalarni to‘plash, yangi topilganlarini ilmiy istifodaga olib kirish, asarlarini matnshunoslik va adabiy manbashunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilish;

Rauf Parfining Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyida saqlanayotgan 180 ta qo‘lyozmasi va 20 ta daftaridagi she’rlarning o‘ziga xos xususiyatlarini nashr nusxalari bilan qiyosiy tekshirish hamda ijodkor arxivi manbalarini ilmiy tasnif etish, matn tahririga doir nazariy qarashlarni tahlil etish;

shoirning ilk kitoblari nashridan farqli ravishda “Sakina” kitobidagi umrining oxirida amalga oshirilgan tahrirlarni matniy-qiyosiy aspektda ko‘rib chiqish, ilmiy xulosalar berish va she’rlar badiiyatidagi mushtarak va farqli jihatlarni asoslash;

shoir ijodini, uning asarlaridagi uslubiy hamda poetik jihatlarni, obrazlar dinamikasini

---

Тошкент, 2014. - №4. – Б. 6; Ўша муаллиф. Рауф Парфи поэтик оламига бир назар// Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 2013. - №3. – Б. 8; Мирзаева З. Бир туш кўрдим тушимда// Ёшлик. – Тошкент, 2013. - №9. – Б. 7; Холова М. Рауф Парфи ижодида метафора. – Тошкент: Муҳаррир, 2013. – 85 б.

<sup>4</sup>Акромов В. Yurak yo‘llari. – Toshkent: Zilolbuloq, 2020. – 158 б.

<sup>5</sup>Суярова Г. Рауф Парфи ижоди ўзбек адабиётшунослиги кўзгусида. – Тошкент: Муסיқа, 2018. – 83 б.

tekshirish va xulosalar chiqarish.

**Tadqiqotning obyektini** O‘zRFA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida saqlanayotgan Rauf Parfi asarlari qo‘lyozmalari, Chorsham‘ Ro‘ziyev shaxsiy arxivida saqlanayotgan 20 ta daftari nusxalari, Baxtiyor Isabek shaxsiy arxividagi “Hukmnoma” qo‘lnashr kitobi nusxasi va turli yillarda chop etilgan kitoblari tashkil qiladi.

**Tadqiqot predmetini** Rauf Parfi hayoti, ijodi va ijod maktabi, asarlarining qo‘lyozma nusxalari va kitoblari orasidagi tafovutlar talqini tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda matniy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, tasniflash, tavsiflash va analitik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Rauf Parfi asarlari qo‘lyozmalari ilk bor matniy-qiyosiy tekshirilib, shoirning qo‘lyozmalari va kitoblari orasidagi she‘rlarida misra, so‘zlar tahriri kabi badiiy, Turkiston, Turon so‘zlari orqali g‘oyaviy tafovutlar aniqlanib, Rauf Parfi she‘riyatining tili, semantikasi, ruhoniyy va majoziiy xususiyatlari ochib berilgan;

shoir qo‘lyozmalari va she‘rlarining nashr nusxalari qiyosiy tekshirilib, she‘rlar qo‘lyozmadan kitobga va kitobdan kitobga ko‘chganda “Jigarbandim, ko‘zim yo‘lingda”, “Daryo mavjlariga yozilmish g‘azal”, “Cho‘li Iroq” kabi she‘rlarida ma‘no o‘zgarishlarga uchragani aniqlangan hamda shoir she‘riyatining g‘oyaviy, badiiy, uslubi va shaklii xususiyatlari asoslangan;

muallifning adabiy jamoatchilikka noma‘lum bo‘lgan 20 ta daftariidagi o‘quvchilik va talabalik yillariga mansub “O‘zbek tili”, “Laylo”(14-daftar, 1036 raqamli qo‘lyozma) she‘rlari, Desanka Maksimovichning “Baribir” she‘ri tarjimasii ilk marta ilmiy istifodaga olib kirilgan;

arxiv materiallaridagi 64 ta she‘rda 134 ta o‘zgartish shoirning o‘zi tomonidan amalga oshirilganligi aniqlanib, bu tafovutlar muallif asarlarining turli yillardagi nashr nusxalari qiyosi natijasida aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

Rauf Parfining Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyida saqlanayotgan 180 ta arxiv materiallari va 20 ta daftariidagi she‘rlarini jamoatchilik hukmiga havola qilinishga oid nazariy mulohazalar berilgan va qo‘lyozmalarning matn tarixi, tahriri, talqini masalalari o‘rganilib, ilmiy xulosalar berildi va bu uning she‘riyatining mazmun-mohiyatini belgilovchi mavjud ma‘lumotlarni kengaytirishga xizmat qilgan;

shoir adabiy merosi manbalarining ilmiy tasnifiy tahlili va tavsifi amalga oshirilishi, qo‘lyozmalarning g‘oya, shakl, til badiiy jihatdan tasnif qilinishi, shoir ijod laboratoriyasining to‘liq o‘rganilishi, matn ustida ishlash prinsiplari, she‘rning tug‘ilishiga oid psixologik va badiiy-estetik nuqtayi nazarlarning maydonga kelishi ishning zamonaviy matnshunoslik, o‘zbek adabiyoti tarixi, adabiyot nazariyasi fanlari taraqqiyotiga xizmat qilishi dalillangan;

Rauf Parfi arxivi to‘la tadqiq qilingani holda muallifning e‘lon qilinmagan aksariyat she‘rlari saralanib nashr qilishga loyiq ekanligi aniqlangan;

muallifning badiiy obraz yaratishdagi umumlashtirish xususiyati, qo‘lyozmalari va matn ustida ishlash texnikasi, lirik qahramon ruhiyatini ochishi, tasvir va obrazli ifodaning badiiy ko‘lami o‘zbek va jahon adabiyoti mezonlari asosida tahlil qilinishi tadqiqot mohiyatini belgilaydi va shoirga xos so‘z qo‘llash va tasvir mahorati,

qo‘lyozmalararo muvofiq va nomuvofiq jihatlar, tahrir talqini kabi masalalar misollar asosida isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyida saqlanayotgan shoir Rauf Parfi ning 180 ta arxiv hujjatlari, shoirning yaqinlaridan qo‘lga kiritilgan 20 ta daftari nusxalari, Baxtiyor Isabekov shaxsiy kutubxonasida saqlangan “Hukmnoma” kitobining yagona qo‘lnashr nusxasi, shoirning o‘z dastxati bilan ko‘chirib tayyorlangan Abdurahmon Vodiliy she‘rlar kitobi, shoir she‘rlarining matnshunoslik va adabiy manbashunoslik aspektida tahlilga tortilgani, ijod laboratoriyasi, ijod priyomlari va adabiyot nazariyasi qonuniyatlaridan kelib chiqib tadqiq qilingani, ishonchli ilmiy manbalar va lug‘atlardan foydalanilganligi, nazariy qarashlarning amaliyotga tatbiq etilgani, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, Rauf Parfi asarlari qo‘lyozmalari, xususan, she‘riyatini matniy-qiyosiy o‘rganilganligi, poetik tadqiq etilishi, nazariy tushunchalar bilan to‘ldirilgani, matn tabiati va tahriridan kelib chiqqan holda shoir qo‘lyozmalarining psixologik va badiiy jihatlarini asoslab berilganligi, shoir she‘rlarining uslubiy va shakliy takomili haqidagi o‘rinli mulohazalar chiqarilganligi, shoir she‘rlari tahliliga yangicha yondashuv tamoyillar, XX asr o‘zbek she‘riyati haqidagi tasavvur va bilimlarning chuqurlashishiga, poetik xususiyatlarni tahlil qilishda nazariy bilim ustuvorligini to‘g‘ri anglashga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati oliy ta‘limning bakalavriat va magistratura bosqichlarida, xususan, oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlarida maxsus kurs yoki seminar mashg‘ulotlarini o‘tkazishda, zamonaviy matnshunoslik bo‘yicha adabiyot darslarida, shu bilan birga, ushbu yo‘nalishda darslik, qo‘llanma va risolalar yaratishda adabiy manba sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Rauf Parfi asarlari qo‘lyozmalarining matniy-qiyosiy tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Rauf Parfi asarlari qo‘lyozmalari ilk bor matniy-qiyosiy tekshirilib, shoirning qo‘lyozmalari va kitoblari orasidagi she‘rlarida misra, so‘zlar tahriri kabi badiiy, Turkiston, Turon so‘zlari orqali g‘oyaviy tafvutlar aniqlangani, Rauf Parfi she‘riyatining tili, semantikasi, ruhoni va majoziy xususiyatlari, shoir qo‘lyozmalari va she‘rlarining nashr nusxalari qiyosiy tekshirilgani va she‘rlar qo‘lyozmadan kitobga va kitobdan kitobga ko‘chganda turfa ko‘rinishdagi ma’no o‘zgarishlarga uchraganiga oid ilmiy xulosalardan Namangan davlat universitetida 2020-2023-yillarda bajarilgan FZ 201912099 raqamli “O‘zbek folklorining o‘zbek va ingliz tillarida veb sayti va multimedia mahsulotlarini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Namangan davlat universitetining 2024-yil 30-yanvardagi 04-3247-son ma’lumotnomasi). Natijada obrazlarning ramziy-majoziy mohiyati, tasvir va ifoda tarzining g‘oyaga bo‘ysunmagani va poetik jihatlarining ichki aloqadorlik asosida folklorga bog‘lanishiga doir materiallar bilan boyitilgan;

muallifning adabiy jamoatchilikka noma’lum bo‘lgan 20 ta daftardagi o‘quvchilik va talabalik yillariga mansub “O‘zbek tili”, “Laylo”(14-daftar, 1036 raqamli qo‘lyozma) she‘rlari, Desanka Maksimovichning “Baribir” she‘ri tarjimasini ilk marta ilmiy istifodaga olib kirilgani haqidagi ilmiy ma’lumotlardan “O‘zbekiston tarixi” telekanalida

efirga uzatilgan “Ibtido” ko‘rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 19-martdagi 02-31-401 son ma‘lumotnomasi.) Natijada shoir arxividagi qo‘lyozmalar tadqiqi va she‘rlarining poetik va psixologik xususiyatlariga doir ma‘lumotlar bilan ko‘rsatuv ilmiy saviyasi oshishiga xizmat qilgan;

arxiv materiallari orasidagi 64 ta she‘rda 134 ta o‘zgartish shoirning o‘zi tomonidan amalga oshirilganligi, tafovutlar muallif asarlarining turli yillardagi nashr nusxalari qiyosi natijasida yuzaga kelganligi, Rauf Parfi she‘riyatining ruhiy-psixologik portreti, asarlaridagi xalqimizning qadimiy tarixi, buguni va boy madaniyati, el-yurtimizning fidokorona mehnati bilan erishilayotgan tub o‘zgarishlarni teran aks ettirishga qaratilgan g‘oyalar yosh ijodkorlar uchun faoliyat olib boradigan “Umid” to‘garagi, “Xiyobon oqshomlari” mashg‘ulotlari dasturlarini tayyorlashda va yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini o‘tkazish chora-tadbirlarini amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2024-yil 18-yanvardagi 01-03/84-son ma‘lumotnomasi.) Natijada yosh ijodkorlarning Rauf Parfi she‘riyatining badiiy-g‘oyaviy xususiyatlari va O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan nashrga tayyorlangan Rauf Parfi she‘rlari jamlangan kitobdagi asarlarning to‘g‘ri va aniq variantlari bilan tanishishga erishgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy maqola e‘lon qilingan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 tasi respublika hamda 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 151 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Rauf Parfi ijodining o‘rganilishi va qo‘lyozmalari tasnifi masalalari”** deb nomlangan birinchi bobi 2 paragrafdan iborat. Bobning **“Rauf Parfi ijodining o‘rganilish bosqichlari”** deb nomlangan **1.1 paragrafida** parfishunoslikda olib borilgan ilmiy-tahliliy tadqiqotlar, o‘ziga xos nuqtayi nazarlar, Rauf Parfi ijodining o‘zbek adabiyotining shakliy-uslubiy jihatdan yangilashdagi o‘rni, shu davrga qadar mamlakatimizda va xorijda olib borilgan tadqiqotlarning o‘rni va ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Rauf Parfi she‘riyati favqulodda hodisa bo‘lgani holda she‘rlari, tarjimalari, nasri<sup>6</sup>, adabiy suhbatlari, fikr-mulohazalari o‘zbek adabiyotining bebaho merosiga aylangani haqida so‘z boradi. Shoirning og‘zaki va yozma nutqidagi o‘ziga xoslik, parfiyona fikr qurilishi, haqiqat va so‘z tushunchasining bitta nuqtada kesishuviga oid xususiyatlar Parfi shaxsi va she‘riyatining asl mohiyatini belgilab

beradi. Rauf Parfi ijodi va shaxsiyatini tadqiq etish ishlari tirikligidayoq boshlangan.

Rauf Parfi sermahsul ijod qilgan bo‘lib, u she‘riy janrda nihoyat yuksak she‘rlar yaratish bilan bir qatorda jahonning novator shoirlari she‘rlarini o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan. Bu kabi sermahsul ijod sohibining ijodiy diapozoni keng adabiy jamoatchilik diqqat - e‘tiborida bo‘lishi tabiiy hol edi. Hech bir davr adabiyotida va ijtimoiy hayotida yangilik osonlik bilan qabul qilinmagan. Shu ma‘noda Asqad Muxtorning “She‘r-shoirning ijtimoiy vijdoni” sarlavhali maqolasi Rauf Parfi ijodini yangicha tahlil mezonlari asosida tadqiq qilgan ilk zalvorli maqola edi. Bu Rauf Parfi ijodining ma‘no va uslubiy jihatlarini o‘rganilishida dastlabki, yaxlit va to‘laqonli maqola hisoblanadi<sup>6</sup>.

Rauf Parfi she‘riyatining o‘ziga xos xususiyatlari haqida yozilgan maqolalarning ko‘pchiligida bitta jihatni kuzatish mumkin: yangiligi oqlanadi, formalistligi qoralanadi. Adabiyotshunos olim, akademik Baxtiyor Nazarov shoir he‘rlaridagi o‘ziga xoslikni ulug‘lash barobarida “forma ketidan quvishi”ni, “shaklga mahliyoligi”ni va “original obraz yaratish ilinjida o‘ta murkkablikka yo‘l qo‘yishi”ni tanqid ostiga oladi. Shuning barobarida bu qusurlar faqat 60-70-yillarga mansub ekanligini va 80-yillarda yozilgan she‘rlarida shaklga mahliyolik barham topganligini ta‘kidlaydi<sup>7</sup>.

Yozuvchi Shukrullo shoirni nihoyatda izlanuvchan va nozik fikr egasi ekanligini, beqiyos shoirligini e‘tirof etish fonida uni ijodda har maqomga yo‘rg‘alashda “ayb”laydi va bu maqolaning ham nomidan ijobiy, mazmunidagi tanqidiy fikr anglashiladi. Umuman olganda Rauf Parfi ijodining ilk bosqichlariga mansub she‘rlar haqida sakta qarashlar ko‘zga tashlanadiki, ularning ayrimlari nazariy jihatdan asoslanmagan, umumiy e‘tirof yoki inkor doirasida ifoda etilgan<sup>8</sup>.

Nuriddin Shukurovning “Lirik qahramonning ma‘naviy olami”<sup>9</sup>, “Shoir xalqning dili va tili”, “Hayot, adabiyot, tanqid” maqolalari Rauf Parfi siymosiga, ijodiga bo‘lgan maqsadli tanqidning ilk va davomli ko‘rinishi edi.

Unga N.Xudoyberganov, I.Haqqulov, B.Akromov, B.Norboyev, Ya.Qosimov, M.Tenglashev, Ch.Avaz kabi shoir va olimlar o‘z vaqtida raddiyalar yozib, shoir she‘riyatining o‘ziga xos qirralari haqida fikr-mulohazalarini bayon etishgan. Ibrohim Haqqulov “Yana lirik qahramonning ma‘naviy olami haqida” nomli maqolasini yozadi, u N.Shukurov mulohazalariga fikran, ruhan va shaklan qarshi yozilgan maqolalardan biri edi<sup>10</sup>.

Rauf Parfi ijodi va shaxsini o‘rganuvchi badiiy-publitsistik maqolalar ham talaygina va tabiiyki, ularning ayrimlari bahs-u munozaraga chorlaydi. Rauf Parfi she‘riyatini tadqiq qilishda ayrim olimlar biryoqlama nuqtayi nazarda bo‘lgani holda, badiiy-publitsistik maqolalarda ham bu tor qobiq ichidan turib, shoir she‘riyatiga nazar

<sup>6</sup> Парфи Р. Сайланма. – Тошкент: Мухаррир, 2022. – Б. 390.

<sup>7</sup> Назаров Б. Янгича фикрлаш муждалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1988. - №2. – Б. 7.

<sup>8</sup> Шукрулло. Шеърятда ҳаёт нафаси // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкен, 1984. 24 февраль. - № 8.

<sup>9</sup> Шукуров Н. Лирик қаҳрамоннинг маънавий олами // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1981. 29 май. - №9. Ўша муаллиф. Шоир халқнинг дили ва тили // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1981. 30 октябрь. - № 31. Ўша муаллиф. Ҳаёт, адабиёт, танқид // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1984. 29 июнь. - №13.

<sup>10</sup> Ҳаққулов И. Яна лирик қаҳрамоннинг маънавий олами ҳақида // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1981. 7 август. - № 19.

tashlanganini kuzatish mumkin.

Aksariyat maqolalar esa Rauf Parfi shaxsi va she'riyatini tadqiq etishga emas, maqola muallifining shaxsiy egosini qanoatlantirishga qaratilgan. Ular quyidagi xulosalarga yetaklaydi:

- Rauf Parfi shaxsi buzib ko'rsatiladi va shoirga yaqinlik da'vo qilinadi;
- Rauf Parfining individual portreti dunyoviy maishatga o'ch inson sifatida talqin etiladi;
- Rauf Parfining shaxs sifatidagi egosi bilan ijtimoiy egosi qorishtirib yuboriladi;
- Rauf Parfining o'zbek adabiyotini yangilashdagi, avlodlarni tarbiyalashdagi o'rni xaspo'shlanadi, konkret tahlil etilmaydi.

N.Rahimjonov "Yomg'ir emas, marvarid yog'ar" she'rining tahlilida "lirik qahramon kechinmalari qorong'i kechaga esh" deya fikr bildiradi, she'rning mazmuniga e'tibor qaratilganda esa, uning qorong'iga daxli yo'q. Yomg'irning kecha shaklida ekanligi kechaning qorong'iligidan emas, balki kecha shakli kabi insonni ruhan parvarishlaydigan, xotirjamligini ta'minlaydigan va bir lahzaga bo'lsa ham dunyoviy tashvishlardan uzilib, insonlar halovatini ta'minlaydigan manzarani ko'rsatish asosiy planga ko'tarilgan. Bu she'rda rang, tusga emas, shaklga, hajmga e'tiborni qaratishga to'g'ri keladi. Bu o'rinda she'rda qorong'ilikka daxli bo'lmagan go'zal va yorug' bir hisning, kechinmaning surati aks etganligini ta'kidlash zarur.

Ilhom Qurbonboyev<sup>11</sup> dissertatsiyasida "Rauf Parfi lirikasi timsolida g'arb tafakkur tarziga xos ifoda yo'sini an'anaviy talqin bilan raqobatlasha boshladi", deya Rauf Parfining quyidagi she'rini keltiradi.

Hasratimning

Suyuq toshlaridan

Dahma qurmoqchiman

O'zimga

Ichida o'z jasadim bo'lsin<sup>12</sup>.

Tadqiqotchining fikrlari e'tiborni tortadi: nega aynan g'arb tafakkur tarziga xos bo'lgan ifoda yo'sini an'anaviy talqin bilan raqobatlashadi? Ehtimol, shakl, tafakkur tarsi yoki talqin raqobatga kirishar, biroq ifoda yo'sini raqobatlasha olmaydi. Ifoda yo'sinining g'arbcha yo sharqchasi bo'lmaydi, u umuminsonga va umumadabiyotga xos tushunchadir!

Shuningdek, yapon shoiri Isikava Takuboku ham sharqlik-ku! Demak, bu she'r qanday qilib g'arbcha tafakkur tarzini o'zida ifoda etgan bo'lishi mumkin? Agar Takubokuda g'arb ta'siri bo'lgan taqdirda ham bu Rauf Parfi she'riga nisbatan bu tarzda fikr yuritishga asos bermaydi. She'rning fikr qurilishida, ohangida, shaklida g'arbga xos unsurlar ko'zga tashlanmaydi. She'r boshlanishida "Isikava Takuboku xotirasiga" deb yozilgani I.Qurbonboyevga shunday fikr yuritishga asos bergan bo'lishi mumkin.

Filologiya fanlari doktori, professor Nizomiddin Mahmudov yozadi: "Shoir o'zining "Isikava Takuboku xotirasiga" nomli she'rda suyuq tosh tarzidagi mag'zi to'q va ohorli sinestetik metaforani qo'llagan: *Hasratimning Suyuq toshlaridan Dahma*

<sup>11</sup> Курбонбоев И. 90-йиллар шеърлятида образлилик. Филол.фан.номз.дисс. – Тошкент: 2005. – Б. 43.

<sup>12</sup> Парфи Р. Туркистон рухи. – Тошкент: Шарк, 2013. – Б. 41.

*qurmoqchiman O'zimga. Ichida o'z jasadim bo'lsin.* Albatta, hasratning suyuq toshlari faqat ko'z yoshining o'zigina emas, balki u bilan aloqaga kirishadigan barcha ko'rguliklarning majmuasi, birligi va borligidir”<sup>13</sup>. Muhtaram olim ushbu tahlilida asosiy e'tiborni sinestetik metaforaga qaratadi va shuning barobarida she'r mohiyatiga chuqur yondashgan.

Munaqqid R.Rahmat Rauf Parfi she'rlaridagi psixologik ziddiyatlarni, ruhiy zo'riqishlarni, depressiya holatlarini yaqqol va aniq ko'rsatishga harakat qiladi va shoirning she'r ichida og'riyotgan nuqtalarini to'g'ri topa oladi. Munaqqid Rauf Parfi she'rlari ma'nosini sharhlash bilan cheklanmay, she'rlarni ruhiy-emotsional jihatdan tahlil qilishga erishadi.

Rauf Parfi ijodi xorij olimlari tomonidan ham tadqiqotga tortilgan bo'lib, amerikalik turkolog olim, professor Reychel Harell “Ko'klamdan ko'klamga” nomli maqolasida o'zbek modern she'rlarini ingliz tiliga tarjima qilish, tilning “charchaganlik” alomatlarini tahlil qilar ekan, adabiyotshunoslikdagi nazariy komponentlarni mutlaqo yangi tahlillar bilan boyitadi.

Rauf Parfi she'riyati haqida xorij va o'zbek olimlarining fikr-qarashlari tahlil qilinganda, Reychel Harell va Sanjar Yanishevlar tahlilida alohida qiyosiy tadqiq uslubi kuzatilgani holda turk va ozarbayjon olimlari Hikmat Korash, Yashar Qosimlarning nuqtayi nazarlarida o'zbek olimlarining tahlillari bilan umumiy uyg'unlik va fikrdoshlik xususiyatlari ko'zga tashlanadi. Umuman olganda ushbu tadqiqotlarda Rauf Parfi ijodi va shaxsining o'rganilishida umumiy chizgilar ko'zga tashlansa ham, Rauf Parfi badiiy olamning ichkin qirralari, ifoda uslubi, matn mexanizmi turli tomondan tahlilga tortilgan va ilmiy-spetsifik natijalarga erishilgan.

Bobning 1.2 paragraf **“Qo'lyozma matnlarning tasnifiy tahlili”** xususida bo'lib, unda shoir qo'lyozmalari turli jihatlariga ko'ra tasniflangan.

Rauf Parfi qo'lyozmalarini tasniflashda matnshunoslikning, matnning va qo'lyozmaning talablaridan kelib chiqib, munosabatda bo'lindi. Uni qiyosiy o'rganishda, tahlil qilishda matn va manba o'rtasida nihoyatda nozik masofani yo'qotmaslikka harakat qilingan.

Rauf Parfining mavjud qo'lyozmalarining bir qismi O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi “O'zbekiston yozuvchilari arxivi” fondida jami 180 ta qo'lyozma hujjat sifatida saqlanadi.

Ushbu arxiv juda boy va rang-barang bo'lib, muallif ijod laboratoriyasi, ishlash prinsiplari, matn jozibasi, badiiy matnga munosabati hamda matn ustida pishiq ish olib borganidan dalolat beradi.

Rauf Parfi asarlari qo'lyozmalari o'rganilar ekan, qo'lyozmalarning holati, tahrirlar, bir she'ning bir necha xil nusxalaridagi tafovutlar, varaqdan varaqqa ko'chgandagi o'zgarishlar, asarlarning janr xususiyatlari va qo'lyozmalardagi imzo va sanalariga alohida e'tibor qaratildi. Albatta, uning mashinkada terilgan she'r qo'lyozmalari orasida bir she'ning bir necha xil variantlari borki, ular barcha nusxada bir xil ko'rinishga ega bo'lgan.

Ushbu tadqiqot jarayonida qo'lyozmalardagi konkretlikka, to'g'rilikka, matniy pishqlikka va shoirning o'zi tirikligida tayyorlangan kitoblardagi (“Sakina” kitobidagi)

---

<sup>13</sup> Махмудов Н. Туйғулар талоши //О'zbekiston adabiyoti va san'ati. – 2023. 3 ноябрь. - № 43. – Б. 3.

she'rlarga tayanch manba sifatida qaraldi.

**Rauf Parfi arxivga mansub qo'lyozma asarlarini janr xususiyatlaridan kelib chiqib quyidagicha tasnif qilish mumkin:**

- she'rlari (bunga she'rlari, she'riy tarjimalari, turkumlari, sonetlari va she'riy janrda yozilgan boshqa asarlari kiradi<sup>14</sup>;

- publitsistik maqolalari;
- nutqlari;
- maktub va qaydlari.

**Muallif qo'lyozmalarini til nuqtayi nazaridan quyidagicha tasniflash mumkin:**

- o'zbek tilida yozilgan asosiy qo'lyozmalar (she'rlar, g'azallar, tuyuqlar, maqolalar, xatlar, nutqlar, matnlar va gazeta qirqimlari);

- Rauf Parfining rus tilidagi she'rlari (Viktor Sosnora va Yu.Lasskiy tomonidan tarjima qilingan she'rlari rus tilida berilgan);

- Rauf Parfi tomonidan ko'chirib yozilgan rus shoirlarining rus tilidagi she'rlari va shoir she'rlariga rus tilida olingan iqtiboslar;

- she'rlarga ingliz tilida olingan iqtiboslar (she'riy parchalar).

**Rauf Parfining qo'lyozma asarlarining yozuv nuqtayi nazardan kirill alifbosida (bular arxiv qo'lyozmalarining asosiy qismini tashkil qiladi), lotin alifbosida, turkcha alifbo<sup>15</sup> (shoirning yagona she'r qo'lyozmasi)da yozilganiga qarab tasnif qildik.**

Rauf Parfi o'z she'riyatining tub ildizlarida jahon adabiyotining eng boy an'alarini singdirganini ko'rish mumkin. Bu jihatdan **Rauf Parfi she'rlari qo'lyozmalarini shakl va ma'no jihatdan quyidagicha tasniflash** to'g'ri bo'ladi:

- Rauf Parfining mumtoz adabiyot zamiridagi izlanishlari. Bularga shoirning Alisher Navoiy, ustoz Abdurahmon Vodiliy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon g'azallariga bog'lagan muxammaslarini hamda klassik adabiyot an'analari yo'lida bitilgan tuyuqlari kiradi.

- Yevropa va rus she'riyati an'alarini o'zida sintez qilgan she'rlari. Bunga shoir ijodining boshlang'ich davridagi she'rlari va sonetlarini kiritish mumkin.

- Jadid va turk she'riyati ohanglari, g'oyalari va boy tajribalarini o'zida mujassam etgan asarlari. Bularga shoir ijodiy merosining asosiy qismini kiritish mumkin bo'ladi.

- Yapon she'riyati an'alariga xos bo'lgan xokku va tankalar shakl va mazmuni o'ziga jo etgan ikkiliklar, uchliklar, to'rtlik va beshliklari. Bularni qaysidir ma'noda shoirning qiziqishi bilan bog'liq eksperimentlar, deb qarash mumkin.

Shoir daftarlari va qo'lyozmalari ichida juda ko'p ro'yxatlarga duch kelinadi. Bular **1-daftardan to 20-daftarga qadar 63 ta ro'yxatni** tashkil etadi. Ushbu ro'yxatlar shoirning o'zbek va jahon adabiyoti borasida tizimli va malakali ish olib borganidan dalolat beradi. Ro'yxatlarni shoir o'ziga ma'lum bir eskartma yoki reja uchun tuzgan bo'lishi mumkin. Bu ro'yxatlarni quyidagicha tasniflashni lozim topdik:

<sup>14</sup> Biz o'rgangan manbalarda muallifning nasriy asarlari o'rin olmagan. Shu bois nasriy asarlarini janr xususiyatlariga ko'ra tasnif qilmadik.

<sup>15</sup> Парфи Р. 19-дафтар. №140 рақамли қўлёзма. Чоршамъ Рўзиев шахсий архиви.

- o‘zbek shoir va yozuvchilarining ism-shariflari yozilgan ro‘yxatlar;<sup>16</sup>
- rus shoirlarining ismlari yozilgan ro‘yxatlar;<sup>17</sup>
- jahon klassik ijodkorlarining nomlari yozilgan ro‘yxatlar;<sup>18</sup>
- shoirning o‘z she’rlarining nomlari yozilgan ro‘yxatlar;<sup>19</sup>
- Nozim Hikmatning o‘zbek tilidagi asarlari ro‘yxati;<sup>20</sup>
- shoir va yozuvchilarning ismlari aralash berilgan ro‘yxatlar;<sup>21</sup>
- Erkin Vohidov kitoblarining nomlari keltirilgan ro‘yxat;<sup>22</sup>
- shoirning gazeta va jurnallarga berilgan asarlari ro‘yxati;<sup>23</sup>
- yozilishi kerak bo‘lgan matnlar ro‘yxati.<sup>24</sup>

Bular orasida eng katta ro‘yxat, shoir va yozuvchilarning ismlari va kitoblarining nomlari o‘rin olgan ro‘yxatlar bo‘lib, u 6 ta qo‘lyozmada aks etgan. Unda O‘zbekiston va jahonning eng mashhur shoir-yozuvchilari asarlarining nomlari yozilgan. Yozilishi kerak bo‘lgan tekstlar ro‘yxati esa Rauf Parfining eng yosh vaqti, ya’ni ijodiy mashqlarini boshlagan dastlabki yillariga tegishli bo‘lib (1955-yil – izoh G.M.), unda yosh shoirning yozish kerak deb rejalashtirgan she’rlarining taxminiy nomlari berilgan. Rauf Parfi arxividagi qo‘lyozmalar til, yozuv, shakl, janr jihatdan rang-barang bo‘lganligi bois, ularni tasniflash zarurati paydo bo‘ldi va shoir asarlarining yaratilish davri va nashr qilingan kitoblarining tasnifi amalga oshirildi. Bular Rauf Parfi qo‘lyozmalarini bugungi kun matnshunoslik va manbashunoslik masalalari nuqtayi

nazardan o‘rganganda qulaylik tug‘diradi.

Ishning ikkinchi bobi “**Arxiv materiallarining matniy-qiyosiy tadqiqi**” deb nomlanib,

2.1 paragrafda “*Qo‘lyozmalararo tafovutlar, qiyos va matn tarixi*” haqida fikr yuritilgan.

Ma’lumki, muallif o‘z qo‘lyozmalarida matn pishiqligini ta’minlashga professional harakat qilgani kuzatiladi. Bu shoir arxivining ko‘lamini, darajasini belgilagan qo‘lyozmalardan yaxshi tanish. Qo‘lyozmalararo tafovutlar tadqiq qilinar ekan, shoirning o‘z qo‘li bilan tayyorlagan so‘nggi “Sakina” kitobi qiyosiy tahlil uchun asos manba bo‘lib xizmat qiladi. Ma’lumki, mumtoz adabiyot namunalari matnshunosligida shoirning dastxatida bitilgan qo‘lyozma eng qimmatli manba hisoblanadi, biroq biz asarlarini tadqiq etayotgan muallifning ayrim qo‘lyozmalari haqida bu kabi fikr yuritishning imkoni yo‘q. Chunki muallif kitob nashri jarayonida qo‘lyozmaning dastxat nusxasini qayta tahrir qilgan, natijada she’rlar sezilarli o‘zgarishlarga yuz tutgan. “Sakina” shoirning o‘z qo‘li bilan tayyorlagan oxirgi kitobi

<sup>16</sup> Парфи Р. 3- дафтар, № 1047, №1048 кўлёзма. Чоршамъ Рўзиев шахсий архиви.

<sup>17</sup> Парфи Р. 4-дафтар, № 55 кўлёзма. Чоршамъ Рўзиев шахсий архиви.

<sup>18</sup> Парфи Р. 19-дафтар, № 146 кўлёзма. Чоршамъ Рўзиев шахсий архиви.

<sup>19</sup> Парфи Р. 19-дафтар, № 3, №4, №5 кўлёзма. Чоршамъ Рўзиев шахсий архиви.

<sup>20</sup> Парфи Р. 14-дафтар, № 1068 кўлёзма. Чоршамъ Рўзиев шахсий архиви.

<sup>21</sup> Парфи Р. 4-дафтар, № 55, 56, 57, 58, 59, 60 кўлёмалар. Чоршамъ Рўзиев шахсий архиви.

<sup>22</sup> Парфи Р. 19-дафтар, №147 кўлёзма. Чоршамъ Рўзиев шахсий архиви.

<sup>23</sup> Парфи Р. 12-дафтар, № 55 кўлёзма. Чоршамъ Рўзиев шахсий архиви.

<sup>24</sup> Парфи Р. 1-дафтар, № 41 кўлёзма. Чоршамъ Рўзиев шахсий архиви.

bo'lgani bois, tadqiqot davomida ushbu kitobga qo'lyozmaday ishonchli manba sifatida munosabatda bo'lindi. Eng e'tiborli tomoni shoirning oldingi, yoshlik yillariga mansub ayrim she'rlari (hatto kitobxonlar orasida mashhur, yod bo'lib ketgan she'rlari ham – izoh G.M.) qayta tahrir qilinib, juz'iy o'zgartishlar bilan kitobdan joy olgan.

Shoirning 64 she'riga 134 ta o'zgartish kiritilgan bo'lib, ulardan aksariyati o'rinsiz tahrir ekani kuzatiladi. Shulardan 35 ta she'rga, asosan, "Turon", "Turkiston" so'zlari bilan o'zgartish qilingan va bularning ham aksariyatini muvaffaqiyatli tahrir, deb bo'lmaydi. Masalan, shu o'rinda shoirning "Jigarbandim ko'zim yo'lingda"(keyingi nashrda "Oh, Turkiston, ko'zim yo'lingda" – izoh G.M.) deb boshlanuvchi she'ring dastlabki "Sabr daraxti" kitobiga kiritilgan nusxasini va "Sakina" kitobiga kiritilgan ko'rinishlari qiyosiy tahlil qilinganda haqiqat oydinlashadi.

She'rda ikkita joyda "Jigarbandim" so'zi "Turkiston"ga va yana ikkita o'rinda "Onang" so'zi "Turon" so'ziga o'zgartirilgan. She'r muallif arxividagi ma'no jihatdan buzilishga uchragan she'rlardan biri, deyish mumkin. She'rning ikkinchi bandidagi satrga "Go'zallarning go'zali, Turon, Sevimplidir, hamda mehribon" tarzida tahrir kiritilgan. Bu satrdagi "mehribon" so'zi o'lkaga, yurtga emas, balki shaxsga nisbatan ishlatiladigan sifatlardan biri ekanligi anglashiladi. Shuningdek, 4 ta satrga kiritilgan tahrirda ham shaxs oti, geografik otga aylanyapti va ma'noni umumiyashtirishga xizmat qilmoqda. Shu jihatdan ushbu tahrir she'rning ruhiga, mazmuniga, quyma (satr)ligiga jiddiy salbiy ta'sir o'tkazgan. Ma'noni turli poetik birliklar orqali kuchaytirishga emas, balki bir so'z vositasida susaytirishga xizmat qilgan.

Shuningdek, shoirning "Dilgir musiqa oqardi" she'rida ham xuddi "Turkiston" so'zi tabiat hodisasi bo'lgan "shabboda" so'zi o'rniga qo'llanilgan. "Oqshom, **shabboda** va yomg'ir" satri "Oqshom, **Turkiston** va yomg'ir" shaklida tahrir qilinib, she'rdagi poetik tasvir ifodasi siyqalanib, hissiy kayfiyatning turlanishiga sabab bo'lmoqda. Shoir sof lirikani ijtimoiy lirika bilan chog'ishtirish orqali hissiy idrokni nafaollashtirmoqda.

Quyida shoir Rauf Parfining Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyi fondida saqlanayotgan aksariyat qo'lyozmalarining holatini ifodalovchi jadvalni keltiramiz:

F/r	Qo'lyozma sarlavhasi	Qo'lyozma nusxalari soni	Tahrir darajasi <sup>25</sup> +/-
8	Turnalar	5	+
14	"Chiroq. Chiroq yonar bo'zarib"	2	+
15	"Uchqur otim og'ir-og'ir hansirar"	1	+
20	"Yulduzlarga men ham qarayman"	1	+
22	"Avval xayol eding, xolos, bir xayol"	1	-
62	"Sabolarda o'ynaydi navo"	2	+
63	"Suv ostida yaltiraydi tosh"	1	+
63	"Men kimnidir kutgayman mahzun"	1	+
64	Shoir	3	+

<sup>25</sup> Kuchli tahrir + bilan, yengil tahrir esa – bilan ko'rsatilgan.

65	190 ta she'r	1	-
107	“Kunduz o'yga cho'mar, tun yaqin”	1	+
111	Bir so'z bor	1	+
112	“Butun kecha o'ychan va sokin”	1	-

Ko'rinadiki, Rauf Parfi arxiv fondida bir qo'lyozmaning bir necha xil nusxalarini dastxat va mashinkada terilgan ko'rinishda uchratish mumkin. Muzey fondida saqlanayotgan qo'lyozma she'rlarning qattiq tahrir qilinganlaridan aksariyati tahlil jarayonida, qolganlari jadvaldagi qiyosda keltirildi. Aksariyat mashinkada terilgan qo'lyozmalar hujjatlarda shoirning o'z dastxati bilan tahrir qilgan nusxalar ham mavjud bo'lib, ular sezilar-sezilmas tahrirlardan iborat. Ayrim qo'lyozmalar va kitobdagi she'rlar ostida ko'rsatilgan yil, oy, kun sanalarida tafovutlar ko'zga tashlanadi. Ehtimol, bularni yozilgan sanasi emas, tahrir qilingan sana bilan bog'liq tafovut deb qarash to'g'ri bo'lsa kerak.

Xulosa qilib aytganda, Rauf Parfi arxividagi qo'lyozmalar tahrirlari, qo'lyozma nusxa va nashr nusxalaridagi aksariyat she'rlarda sezilarli tafovutlar mavjud bo'lib, bu shoirning she'r yaratish mahorati haqida to'laqonli tasavvur paydo qiladi.

Ikkinchi bobning **2.2 paragrafi “Shoir arxivi, matn ustida ishlash uslubi va matn takomili”** deb nomlangan bo'lib, unda muallifning ijod texnologiyasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Rauf Parfida o'z qo'lyozmalarini o'zi tahrir qilgan variantlar asosida va hatto ayrim she'rlarini so'nggi daqiqalarda tahrir qilib, “Sakina” kitobini tayyorlash imkoni bo'ldi hamda kitob ana shu jihati bilan ham qimmatli manba hisoblanadi. Shoirning kitoblaridagi o'zgartish va xatolar bois she'rlar matnini qiyosiy tadqiq qilishga ehtiyoj tug'iladi.

Muallifning arxiv qo'lyozmalarida juda ko'p she'rlari yozilgan va keyin to'lig'icha o'chirib tashlangani e'tiborni tortadi. Rauf Parfining arxiv qo'lyozmalari orasida **51 ta she'ri ustidan X belgisi chizilib**, she'rlar butunlay o'chirilgan. Rauf Parfi ularning ba'zilaridan voz kechgan, ba'zi birlarini esa qayta yozishga muvaffaq bo'lgan.

Rauf Parfi arxivida “Yaproq, yaproq aytib ber menga” she'rining ikki xil ko'rinishi bilan ilovadagi dastxat nusxa orqali tanishishimiz mumkin.

***Muallif A variant<sup>26</sup>dagi qo'lyozmada 10 ta joyda tahrir kiritgan.***

№	Dastlabki satr	O'zgartirilgan satr
1	Yaproq, yaproq aytib ber, nega?	<i>Nega, yaproq aytaqol, nega?</i>
2	<i>Qaramaysan</i> mening ra'yimga”	<i>Qaramasang</i> mening ra'yimga
3	Yaproq, yaproq so'zlab <i>bermaysan</i>	Yaproq, yaproq so'zlab <i>bermasang</i>

<sup>26</sup> Парфи Р. фонди. №18. Алишер Навоий номидаги Адабиёт музейи архиви.

4	O'z sevgingdan bo'zlab <u>bermaysan</u>	O'z sevgingdan bo'zlab <u>bermasang</u>
5	Qaramasang mening ra'yimga	ikkinchi satrga ko'chirilgan
6	Yaproq, yaproq so'zlab bermasang	birinchi satrga ko'chirilgan
7	Nechun tushding, nechun poyimga	to'rtinchi satrga ko'chirilgan
8	O'z sevgingdan bo'zlab bermasang	uchinchi satrga ko'chirilgan
9	<u>Yaproq-yaproq</u> menga o'xshaysan	<u>Juda-juda</u> menga o'xshaysan
10	Uzib otmas edi tabiat, Bosib o'tmas edi odamlar. Fidoyi ey yaproq, sen faqat, Bir so'z ayta olsayding agar...	<b>Ushbu to'rt satr she'r ustidan x belgisi va gir atrofidan aylana chiziq bilan chizib o'chirilgan.</b>

*B variant<sup>27</sup>dagi qo'lyozmada 9 ta tahrir kiritilgan.*

	Dastlabki satr	O'zgartirilgan satr
1	Yaproq, yaproq, aytib ber menga,	ikkinchi qatorga ko'chirilgan
2	Qayda o'sding, qayda yashnading	birinchi qatorga ko'chirilgan
3	Nega <u>yaproq, aytaqol, nega</u>	Nega <u>axir, aytib ber, nega</u>
4	Yaproq, yaproq so'zlab bersang-chi	ikkinchi qatorga ko'chirilgan
5	Qaramasang mening ra'yimga	birinchi qatorga ko'chirilgan
6	Qaramasang mening ra'yimga	<u>Shamol seni boq, supurmoqda</u>
7	O'z sevgingdan bo'zlab bermasang-chi	O'z sevgingdan bo'zlab <u>bersang-chi</u>
8	Nechun, tushding, nechun <u>poyimga!</u> oyoqqa.	Nechun, tushding, nechun <u>oyoqqa.</u>
9	Yaproq menga <u>juda</u> o'xshaysan	<u>Yaproq, yaproq</u> menga o'xshaysan

She'r arxiv fondida ilovadagi ikkita dastxat nusxa(ko'rinish)da saqlanmoqda. She'r dastlab 4, ikkinchi arxiv nusxasida 3 va kitoblarga esa ikki band ya'ni sakkiz satrdan iborat ko'rinishda kiritilgan. Rauf Parfi arxividagi she'rlar ko'p o'chirilib,

<sup>27</sup> Парфи Р. фонди. № 18. Алишер Навоий номидаги Адабиёт музейи архиви.

qayta-qayta tahrir qilingan. Kitobga ushbu she'ning bosma nashrlardagi oxirgi ko'rinishi muallifning o'zi tomonidan kiritilgan. Shoir she'ni badiiy jihatdan mukammal ko'rinishga keltirguncha qayta-qayta o'chirib yozgan, tahrir qilgan, badiiy ishlov bergan. Kitobga kiritilgan she'rlar shoirning asarlaridan birorta so'zni o'rnidan qimirlatishga asos yo'qligini, o'rniga boshqa biror so'zni qo'yib ishlatib bo'lmasligini namoyon etadi<sup>28</sup>. Shuningdek, tahrir natijasida shoir she'ning ma'no, uslub va ohang jihatdan ravonligini ta'minlashga harakat qilgan.

Shoir arxivida tahrir qilinmagan yoki kam tahrir qilingan she'rlar ham mavjud. Xususan, "Avtobus derazasidan qarab ketsang" she'rini misol tariqasida keltirish mumkin. 18 satrdan iborat ushbu she'r shoir arxividagi badiiy mukammal she'rlardan hisoblanadi.

She'ning sarlavhasi yo'q. "Avtobus derazasidan qarab ketsang" satri bilan boshlangan. Satrlar sindirib yozilgan. Bu she'r o'qilayotganda o'quvchiga o'ziga xos kayfiyat baxsh etadi, satrdan satrga o'tganda tasavvur va xayollariga kenglik bag'ishlaydi, kayfiyatni ushlab qolishga yordam beradi. Bu she'r avtobus derazasidan qarab ketgan inson kayfiyatining xos ko'rinishini ifodalaydi.

Tashqi va ichki olamning ajib mushtarakligi, avtobus derazasidan qarab ketgandagi manzaralarning ichkari olamga ko'chishi va undagi g'alayon o'ziga xos sokin DARD bilan ifoda etilgan. She'rda manzara fonida Shoir ichkin tuyg'ularining aks etishi Rauf Parfi ijodining shoh tomiri sifatida bo'rtib ko'rinadi.

Rauf Parfi arxividagi she'r va tarjimalar ustida qilingan tahrir va o'zgartishlar shuni anglatadiki, shoir faqat o'zi yaratgan she'rlar ustida emas, balki har qanday badiiy matn ustida samarali mehnat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Rauf Parfi matnning tildagi qurilmasini, kayfiyatini, obraz va tashbehlardagi harakatini to'g'ri va ta'sirli ta'minlay olgan. Yuqoridagi qo'lyozmalarda uchragan tahrirlar shoirning she'r ustida olib borgan ongli-hissiy tahriridan darak beradi.

Tadqiqotning "*Matn talqinida muallif konsepsiyasining o'rni*" nomli uchinchi bobining 3.1 paragrafida "*Rauf Parfi she'riyatining poetik va psixologik xususiyatlari*" haqida so'z boradi.

Rauf Parfi she'riyatining memorial ko'rinishini quyidagicha tasniflash mumkin:

- shakliy izlanishlar;
- Rauf Parfi she'riyatining uslubiy ko'rinishi;
- ramz, tashbehlar dinamikasi;
- ma'no va musiqiylik sintezi;
- ijtimoiy lirikaning badiiy ko'lam kasb etishi;
- badiiy tilga ishlov berilishi.

Shoir she'riyatining asosini ramz va tashbehlar tashkil etadi. Ramz – bu shoirning poetik siri, Sharl Bodler ta'biri bilan aytsak "o'rmonlar muvofiqligi"dir.

Ramz – shoirning har qanday qaltis jamiyatda yoki vaziyatda so'z aytish quroli bo'lib, bu orqali ijodkor so'zni harir pardaga o'raydi. Rauf Parfida *kecha, oy, tosh, yaproq, suv, daraxt, yulduz, devor* kabi timsollar shu qadar ko'pki, ularning har biri she'rda o'z ma'nosidan tashqari boshqa bir vazifani bajarib keladi. Ehtimol, keyinchalik

<sup>28</sup> Bu yerda "Sakina" kitobigacha bo'lgan kitoblardan o'rin olgan she'rlar haqida fikr yuritilmoqda.

Rauf Parfi she'riyati ramz-timsollar lug'ati tuzilsa, bu adabiyotshunoslik erishgan ulkan muvaffaqiyatlardan biri bo'lishi mumkin.

Ramz-timsollar ba'zan siyosiy – ijtimoiy mazmun kasb etgani holda, tashbeh esa bevosita insonning ichkin tuyg'ulariga, hislariga daxl qiladi. Ramzda ma'no ortiga ma'no yashirin bo'lib, tashbehda ma'no va go'zallik yonma-yon keladi.

Kulrang bulut quladi oxir,  
Parchalandi shu muallaq ko'l.  
G'ir-g'ir shamol, g'ir-g'ir yomg'ir,  
Suratimni chizib berar yo'l.

Bu yerda bulut, kulrang, shamol, yomg'ir, surat, yo'l – **ramz**; "kulrang bulut quladi", "Suratimni chizib berar yo'l" – **metaforadir**.

Rauf Parfi she'riyatida tashbehlar zichligi, matn mustahkamligi leksik mufassallik darajasida ro'y beradi. She'rdagi holatlar, manzara, hislar harakatini tashbeh va ramz-timsollar ta'minlamoqda. Aslida ramz va metafora bir-biriga juda yaqin, ularning orasidagi ko'z ilg'amas chegaralarni estetik qonuniyatlar belgilab beradi. Ehtimol, oddiy she'rda shoirlar epitet va o'xshatishga tez-tez murojaat qilishi mumkin. Biroq Rauf Parfi o'xshatmaydi, taqqoslamaydi, balki o'z poetik obyektini metaforaviy tarzda ko'radi va ko'rsatadi.

She'rdan matematik aniqlikni, ma'no uzviyligini talab qilib bo'lmaydi, "oh-u fig'on" ritmida she'r istagan o'quvchiga bu she'rning tasvir va ma'no ob'ekti torlik qiladi. Shoir she'rlari bitta ma'noga, fikriy ketma-ketlikka, mavzu yaxlitligiga, kayfiyat tugalligiga bo'ysunmaydi. Bu she'rda ong oqimidan suzib o'tayotgan fikrlar xilma-xilligi ko'zga tashlanadi, kayfiyat ko'chmanchiligi kuzatiladi. She'rni tutib turgan ikkita uchlik: *birinchisi: suvlar – sabolar – boychechak; ikkinchisi: jildirash – shivirlash – rahm qilmaslik*. Ya'ni ot va fe'l so'z turkumiga mansub so'zlardagi harakat ifodasi she'rni dunyoga keltirmoqda.

XX asr o'zbek she'riyatida Cho'lpon va Rauf Parfi isyonida g'oyaviy, shakliy, badiiy izchillik, va davomiylik bor. Biri ikkinchisining davomidek taassurot uyg'otadi. Abdulhamid Cho'lpon O'rusiya bosqini pallalarida zulmning, zo'ravonlikning, qullikning qonli xaritasini chizgan, xalqni ozodlikka chorlagan bo'lsa, Rauf Parfi undan 60-70 yil keyin Sho'ro tuzumi davrida avj olgan fojialardan qutulish yo'llarini axtaradi. Shuning uchun Cho'lponda mahzun, g'amgusor, bexalovat dardning mungli isyoni, Rauf Parfida shiddatkor, quyunli, mahobatli isyon suvratini ko'rsa bo'ladi. Ularda har ikki ulug' shoir she'riyatini tutashtiruvchi yaxlit g'oyani – ozodlikka chorlovni ko'rish mumkin:

"Kishan kiyma, bo'yin egma, ki sen ham hur tug'ulg'onsen!"<sup>29</sup>

Uchinchi bobning 3.2 paragrafi "*Rauf Parfi she'riyatida milliy g'oya va uslub evolyutsiyasi*" deb nomlangan. Rauf Parfi o'z ijodiga milliy zehniyat mehvarini singdirgan, turkiy birlik g'oyalarini targ'ib qila olgan shoir, hissiy tafakkur kishisidir.

Rauf Parfining 1954-1955-yillarda yoza boshlagan she'rlaridan iborat qo'lyozmalari orasida Lenin, partiya, sovet, komsomol haqida she'rlari mavjud. Rauf Parfi o'z xotiralarida ilk yozilgan she'rlaridan biri Stalinga bag'ishlanganini e'tirof etgan.

<sup>29</sup> Чўлпон А. Асарлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1994. – Б.180.

Bu kabi zehniyat bilan voyaga yetayotgan adabiyot muhibining to'satdan antikommunist, antisovetchiga aylanib, ulkan milliyatchi shoirga evrilishi e'tiborni tortishi tabiiy. Shoirning 20 ta daftarida Lenin, partiya, sovet, komsomol va kommunizmga bag'ishlangan 19 ta she'r bor bo'lib, "Sabr daraxti" kitobida esa uchta she'ri sovet tuzumi va Lenin shaxsini ulug'lab yozilgan. Shoirning "Sabr daraxti" kitobidagi bu she'rlariga kesatiq, ironiya she'rlar degan nuqtayi nazardan munosabatda bo'lish mumkindir. 20 ta daftardan o'rin olgan sovet g'oyasini ilgari surib yuksak kommunistik pafosda yozilgan she'rlar Rauf Parfi o'zi yashagan davr, davriy matbuot namunalaridan qattiq ta'sirlanganligini dalillaydi. Shu bois, o'zi yashagan tuzumni madh etuvchi she'rlar yozgan bo'lishi ehtimoli yo'q emas. Shuningdek, ijodkor o'z davridan tashqarida yashay olmaydi. Sovet ruhidagi she'rlar bilan voyaga yetgan shoir she'rlarida ham bu g'oya o'z ifodasini topishi tabiiy hol edi. Ijodining ilk bosqichlarida sovet g'oyasini targ'ib qilgan shoir she'riyatida keyinchalik antisovetizm, antikommunizm va milliy zehniyat ruhidagi she'rlarning paydo bo'lishi e'tiborga molik. Bu ulkan ruhoni inqilobni talab etadi.

Shoirning ilk milliy zehniyat ruhi bilan yo'g'rilgan she'ri "O'zbek tili"<sup>30</sup> she'ri bo'lgan deyish mumkin. Agar Rauf Parfining tug'ilgan yili 1940-yil deb qaralsa, bu paytda u 18 yoshda bo'lib, shoirda ilk milliy tafakkur uyg'onishi ana shu davrlarga to'g'ri kelgan.

Rauf Parfi ijodida milliy tushunchalarning yuksala borishi uning Boltiqbo'yi mamlakatlari shoirlari, turk adiblari bilan ijodiy aloqalarining o'rnatilishi bilan tavsiflanadi. Latviyaga qilgan sayohati, milliy istiqlol tushunchasini bizning o'zbek ziyolilaridan ancha ilgari anglab yetgan latish shoiri Uldis Berzinsh bilan bo'lib o'tgan uchrashuvi Rauf Parfi ijodiga jiddiy ta'sir etgani, shubhasiz. Nozim Hikmat, Robindranat Tagor, Viktor Xara, Pablo Neruda kabi milliy qahramonlar hayotini o'rgangan shoir insoniy erk tushunchasini baland pardalarda kuylay boshlagan. Rauf Parfi jahon milliy ozodlik harakati kurashchilari ijodi va faoliyatini o'rganib, yuksak darajada milliyatchi jadidga aylanadi.

She'r inson tuyg'ularining tarixi bo'lib, faqat tuyg'uning o'zi bilan taraqqiy etadigan badiiy yaratqi emas. She'r uchun estetik tamoyillar, shuningdek, badiiy, falsafiy va psixologik xususiyatlar har doim muhim hisoblangan. Badiiy ma'no tovlanishlari, kayfiyat daxlliligi, holat va harakatlar aniqligi, ichki nigohning yo'nalishi, obrazlar dinamikasi va tashbehlarning ma'noga ta'sir etishi, tasvirning qamrovi – bularning har biri o'quvchi zehniyatini axloqiy tamoyillardan ko'ra ildam egallab oladi. "Avval xayol eding, bir xayol, xolos" der ekan shoir axloqiy amoyillardan oldinroq shuurimizga go'zallik tushunchasini eltadi, jozibali tushunchalarga tayanadi. She'rdan inadigan estetik zavq "Kimga?", "Nimaga?", "Qayerda?", "Qachon?" kabi savollarga o'rin qoldirmaydi, undan ruhiyatimizga yetib keladigan go'zallik, nafosat, kayfiyat oldin his-tuyg'ularga, keyin idrokka ta'sir etadi.

Ana shu nuqtadan qaralganda Rauf Parfi she'riyati o'ziga xos ruhiyat kartinasi hisoblanadi. Ayrim shoirlar she'riyatida rad va inkor etish shoirlar uchun tezroq shuhrat qozonish, ko'zga tashlanish va dong taratishning o'ziga xos omili bo'lib xizmat qilgan. Chunki Allohni, yaratgan zotni madh etib, sevgandan ko'ra inkor etish orqali tezroq

---

<sup>30</sup> Парфи Р. 4-дафтар. № 5 - 26 қўлёзма. Чоршамъ Рўзиев шахсий архиви.

tanilish mumkin, degan taxmin aksariyat shoirlarni bu kabi she'rlar yozishga ruhlantirgan bo'lishi mumkin. Rauf Parfi she'riyatida bu kabi maqsadli inkor va maqsadli rad etish ko'zga tashlanmaydi, aksincha, Rauf Parfida inkor – iqroga, rad – iymonga, gumon – ishonchga aylanadi.

Umuman olganda Rauf Parfi fojialar shoiri. Uning har bir she'rida fojia bildirmaygina ta'qib qilib yuradi. Shuning uchun ham shoirning she'rlarida sokin pafos, mahzun intonatsiyaga duch kelinadi. Arastu "Fojia – she'riyatning oliy ko'rinishi" ekanligini aytadi<sup>31</sup>. Rauf Parfining she'rlaridagi fojiaviylik tragediya janri talablari kabi oxirida kimningdir o'limi bilan tugallanadigan fojiaviylik emas, balki ruhning bezovtaligi, abadiy yolg'izlik ko'rinishidagi doimiy iztirob, Alloh va lirik qahramon muloqotidagi g'amnashinlik, o'zni izlash yo'lidagi abadiy tushkunlik, ruhiy tushkunlik shoir she'riyatida fojining ma'lum bir ko'rinishi sifatida tasvirlanadi.

Shu uchun shoir she'riyatida tasvir, ifoda, uslub, g'oyaviy-emotsional ko'rinish bitta jihatga – she'rdagi fojining ichki qurilishini ko'rsatishga qaratilgan. Rauf Parfi she'rlaridagi ruhning tushkunligi bois adabiyotga kirib kelgan ilk pallalarida tanqidga uchragan edi. Tanqidlarga qaramay, bu fojiaviylik, bu tushkunlik shoir she'rlarining har bir davriga xos bo'lib qoldi.

Shoir she'rlarida obraz va tashbehlarning, uslubning betakrorligi e'tiborni tortadi. Bular psixologik va falsafiy omillar vositasida bosqichma-bosqich ochib beriladi. Shoirning eng mashhur she'rlari tahlilida an'anaviy tahlil prinsiplaridan biroz chekinilgan holda, she'rlar erkin tahlil qilindi. She'rni tushunish va tushuntirishda bitta yo'nalish emas, balki turlicha tasavvur va tushunchalarni o'zida jo etgan adabiy-estetik qarashlar tadqiqot asosini tashkil etdi.

## XULOSA

1. XX asrning 80-yillariga kelib she'riyatni tamoman o'zga badiiy mezonlarda kuzatish va tahlil qilishga ehtiyoj tug'ildi. Bu davrda so'z o'z vazifasini o'zgartirdi. Ma'lum muddat lirik qahramonning ijtimoiy voqeliklar girdobida tashqi pafosga qurilgan badiiy nutqi abstrakt shakllarga yo'naltirildi. So'z moddiylashdi, illyuziya – she'r ham insonning estetik idealini to'ldirishi mumkinligi isbotlandi. Rauf Parfi she'riyati o'zining uslubiy, shakliy, fikriy yangiligi bilan o'zbek adabiyotining keyingi taraqqiyot omillarini belgilab berdi. Yangilangan tafakkur evrilishlari, falsafiy-intellektuallik, *musiqiylik – rassomlik – so'z* uchligining bitta vazifani bajarishga yo'naltirilganligi Rauf Parfi she'riyatining mohiyatini ko'rsatadi.

2. Zamonaviy o'zbek she'riyatining yetuk vakili Rauf Parfi ijodi ushbu tadqiqot doirasida psixologik obyektlar nuqtayi nazaridan tadqiq etilib, kayfiyat va holat o'rtasidagi hissiy chegaralar nazariy jihatdan asoslandi. Lirik qahramonning ichki va tashqi olamga bo'lgan munosabati badiiyat qonuniyatlari asosida talqin qilindi. Rauf Parfi she'riyatida duch kelinadigan ruhiy o'pqnlar, psixologik oqim uzluksizligi ilmiy tadqiq etildi.

3. Ma'lumki, hozirga qadar Rauf Parfining ijodiy merosi matnshunoslik va adabiy manbashunoslik obyektida fundamental tadqiq etilgan emas. Rauf Parfi arxivi qo'lyozmalarini matniy-qiyosiy tadqiqi bizga shoirning matn ustida ishlash texnikasi,

<sup>31</sup> Арасту. Поэтика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – Б. 156.

ijod laboratoriyasi, soʻz sintetikasi haqida toʻlaqonli tasavvur beradi. Shoir qoʻlyozmalaridagi matnlarning asl va oʻzgargan holatlarda kitoblardan oʻrin olishi matnshunoslik va adabiy manbashunoslik nuqtayi nazaridan oʻz bahosini oldi.

4. Shoirning Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyida saqlanayotgan 180 ta qoʻlyozmasi bilan birga shoir Chorshamʼ Roʻziyevda saqlanayotgan 20 ta daftaridagi sheʼrlar ham tadqiqotga tortildi. Rauf Parfi ijodi, biografiyasi va shoir ijodining oʻrganilishiga oid manbalar tekshirilib, tadqiq qilindi. Shoirning qoʻlyozmalari va kitoblari oʻzaro muqoyasa qilinganda ularda 64 ta sheʼrda 134 oʻzgarish boʻlganligi aniqlandi va bular matniy-qiyosiy, poetik jihatdan tahlil qilinib, oʻziga xos ilmiy xulosalar qilindi. Ushbu matnlarning matniy-qiyosiy tahlili jarayonida shoirning badiiy etiketi, sheʼrning qanday tugʻilishi oʻrganildi.

5. Rauf Parfi sheʼriyatini kuzatar ekanmiz, ushbu jihatlarni tasbit etdik:

- shoir sheʼrlarida emotsional faktor markaziy faktordir.
- hissiyot va kechinma sheʼriy obrazning umurtqasidir;
- fikr va hissiyot omuxtaligi Parfi sheʼriyatni original qiladigan omil.

Bu shoir sheʼriyatida tashqi omillar emas, hissiy-emotsional, ruhiy bogʻliqliklar orqali oʻz ifodasini topgani kuzatiladi. Shoir sheʼriyati orqali sheʼr faqat axloqiy qarashlarni, maʼrifiy tushunchalarni ifoda etuvchi badiiy ifoda vositasi emasligi, balki goʻzallikning, dardning, uqubatning oʻzi ham maʼrifat ekanligi anglashiladi.

6. *Muallif sheʼrlarida matn ustida ishlash prinsiplari, gipermatnilik xususiyatlari koʻzga tashlanadi.* Soʻzlar zichligi, tasavvur oʻyinlarining fikrga yoʻnaltirilganligi, tilimizda kam isteʼmolda boʻlgan soʻzlarning faollashuvi, til tabiatidan kelib chiqib musiqiy soʻzlarga falsafiy yuk ortish Rauf Parfi sheʼriyatining til va soʻz qurilmasidagi oʻziga xoslikni belgilaydi. *Rauf Parfi sheʼriyati oʻzbek adabiyotini faqat shakl va uslub jihatdan emas, til jihatdan ham yangilaganligi, yuqori bosqichga koʻtarganligi dalillandi.*

7. Shoir sheʼrlarining til va poetik xususiyatlari, gʻoyaviy-badiiy mazmuni, uslubi, istiloh va obrazlarning ramziy-majoziy talqini ilmiy, badiiy-falsafiy manbalar asosida oʻrganildi, nazariy jihatdan asoslab berildi. *Shoir sheʼrlarida obraz va tashbehning gʻoyaga boʻysunmagan holda oʻsib borishini, yuksak poetik xususiyatlarni ichki aloqadorlik asosida harakatlanishini taʼminlay olgan. Sheʼr shakli, uslub va poetik tafakkur eskirmasligi Rauf Parfi sheʼriyati vositasida yana ham aniq koʻlam kasb etdi.*

8. *Rauf Parfining sheʼrlari gʻoyaviy liniyada oʻrganilar ekan, milliy oʻzlik, jadidona gʻoyalar nihoyatda ichkin pafos bilan kuylanganligini kuzatish mumkin. Shoirning yorga, maʼshuqaga bagʻishlangan sheʼrlari bilan Vatanga, Millatga bagʻishlangan sheʼrlari oʻrtasida masofa yoʻqligi kuzatiladi. Rauf Parfi uchun Vatan va yor bir butun tushunchadek taassurot uygʻotadi.*

9. Rauf Parfi asarlari qoʻlyozmalarining matn tarixi, tahriri, talqini masalalari badiiy – stilistik oʻrganilib, yetarlicha ilmiy xulosalar berildi. Shoir adabiy merosi manbalarining ilmiy tasnifi va tavsifi amalga oshirildi. Shoir arxivi qoʻlyozmalari gʻoyaviy, shakliy, til va badiiy xususiyatlariga koʻra ilk bor tasnif qilindi. Shoirning ijod laboratoriyasi toʻliq tadqiq etilib, matn ustida ishlash prinsiplariga doir psixologik va badiiy-estetik omillarga eʼtibor qaratildi.

10. Rauf Parfi anʼanaviylikdan mutlaq voz kechmadi: sərbast bilan birga barmoq vaznida ham sheʼrlar yozdi. Garchi modernizm manifestlarida anʼanaviylikdan,

reallikdan mutlaq voz kechilishi ta'kidlangan bo'lsa ham Rauf Parfi she'riyatida bunga to'liq amal qilingan emas. Rauf Parfi modernizmning badiiy qonuniyatlariga to'la bo'ysunmagan holda o'zbek adabiyotida an'anaviy va modern she'riyatidan iborat qarishiq ya'ni oraliqdagi uslubning maydonga kelishiga hissa qo'shdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ИМЕНИ  
АЛИШЕРА НАВОИ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЛИТЕРАТУРНЫЙ МУЗЕЙ ИМЕНИ  
АЛИШЕРА НАВОИ**

**МАТЕКУБОВА ГУЗАЛ РАДЖАПОВНА**

**СРАВНИТЕЛЬНО - ТЕКСТОВОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ РУКОПИСЕЙ  
ПРОИЗВЕДЕНИЙ РАУФА ПАРФИ**

**10.00.10 – Текстология и литературное  
источниковедение**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО  
ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**ТАШКЕНТ – 2024**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за номером V2021.3.PhD/Fil2020.**

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы имени Алишера Навои.

Автореферат диссертации размещён на трёх (узбекский, русский, английский (резюме)) языках на веб-странице Научного совета ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Эшонкулов Жаббор Солиевич**  
доктор филологических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Жабборов Нурбой Абдулхакимович**  
доктор филологических наук, профессор

**Касимов Яшнар**  
доктор филологических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Педагогический институт имени Низамий**

Защита диссертации состоится «\_\_» \_\_в \_\_\_\_на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 по присуждению учёных степеней при Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы имени Алишера Навои (Адрес: 100100, Ташкент, Яккасарайский район, улица Юсуфа Хос Ходжиба, 103. Тел.: (99871) 281-42-44; факс: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)); e-mail: [monitoring@tsuull.uz](mailto:monitoring@tsuull.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои (зарегистрирована за номером 289). (Адрес: 100100, Ташкент, Яккасарайский район, улица Юсуфа Хос Ходжиба, 103. Тел.: (99871) 281-42-44; факс: (99871) 281-42-44, ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)); e-mail: [monitoring@tsuull.uz](mailto:monitoring@tsuull.uz).)

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года.  
(Реестр протокола рассылки № \_\_ от «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2024 года).

**Х.А.Дадабоев**  
Председатель Научного совета  
по присуждению учёных степеней,  
доктор филол. наук, профессор

**К.У.Пардаев**  
Учёный секретарь Научного совета  
по присуждению учёных степеней,  
доктор филол. наук, профессор

**Р.Ф.Зозохидов**  
Заместитель председателя Научного семинара  
при Научном совете по присуждению учёных  
доктор филол. наук, профессор

## **Введение (аннотация диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Мировое литературоведение вышло на высокий уровень на примере развития науки о литературе, считающейся главным объектом человеческой психики, ее чувств. Подобно тому, как ученые изучают тайны мироздания, процесс открытия внутреннего мира человека, его эмоциональных и психологических особенностей, который требует нескончаемого труда души и разума. Это, в свою очередь, обуславливает необходимость принципов исследования образцов мировой и узбекской литературы, характеризующихся совершенно новой, многогранной наукой.

В мировом литературоведении наука текстологии и литературного источниковедения выдвигает прогрессивные тенденции как в теоретическом, так и в практическом плане. На сегодняшний день выявление источников в данной области, обеспечение их правильного прочтения и толкования, изучение несоответствий и расхождений в рукописях, формирование компетенции анализа редактирования текста являются одними из актуальных вопросов современной текстологии и источниковедения.

В Узбекистане проведены широкомасштабные исследования в области текстологии и литературного источниковедения, развивается современная текстология как его звено. Однако актуальные вопросы, стоящие перед наукой текстологии и литературного источниковедения, всегда считаются важными. Аспекты текстологии и литературного источниковедения, которые привлекают человека к сбору, изучению, научному описанию и исследованию рукописных текстов классической литературы, многочисленны. Количество прошедших лет и величина расстояния, отсутствие среди нас современников классических авторов, скопированность рукописей каллиграфами с разной степенью грамотности, сложность отыскания и применения подлинной рукописи на практике требуют от исследователей классической литературы духовно-просветительского мужества. Возникает вопрос, можно ли проследить такие же результаты и в современной текстологии и источниковедении, когда фиксируются результаты прогрессивного развития в текстологии классической литературы и литературном источниковедении. Может показаться, что нам не нужно столько исследований современников-авторов, чернила в рукописях которых даже не успели высохнуть и того, какие изменения и исправления были внесены в какую из рукописей. Фактически, своевременное полноценное изучение рукописей современных авторов служит для предотвращения серьезных ошибок и дефектов, возникающих с течением времени. Одним из аспектов в этом направлении является тот факт, что рукописи создателя написаны в алфавите, который все еще в нашем обиходе, что дает исследователю облегчение. При правильном использовании этой привилегии можно гарантировать, что рукописи будут безусловно переданы следующему

поколению, если они будут полноценно исследованы в нужное время, тогда и не останется поводов для сомнения в будущих поколениях. По мере того, как источник привлекает внимание к исследованиям, исправления, изменения, которые автор вносит в рукописи, и издание книги, которое он вручную упорядочивает, являются ценным ресурсом. Ключевой этап текстолога в понимании рукописи начинается с того момента, когда исследователь почувствует источник. Формально-стилистические нововведения современной узбекской поэзии проявляется на примере личности и поэзии народного поэта Узбекистана Рауфа Парфи. Архивные рукописи служат важным источником информации, когда исследуются границы между его личностью и поэзией. Тетради автора, сделанные им самим и переплеты рукописной книги публикации, а также различия и несоответствия между его стихами, включенными в его опубликованные книги, важны для исследования литературного наследия Рауфа Парфи.

Постановления Президента Республики Узбекистан от 17 февраля 2017 года № ПП-2789 ” О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности “, от 20 апреля 2017 года № ПП-2909” О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования”, от 24 мая 2017 года № ПП-2995 ” О мерах по дальнейшему совершенствованию системы хранения, исследования и пропаганды древних письменных источников”, от 19 октября 2020 г. № ПП–4865 “О широком праздновании 580-летия со дня рождения великого поэта и мыслителя алишера навои”, от 25 января 2023 г. № ПП-20 “О широком праздновании 540-летия со дня рождения великого поэта и ученого, известного государственного деятеля Захириддина Мухаммада Бабура”, Узбекистан Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 16 февраля 2018 года № 124-F “О проведении международной конференции на тему: Актуальные вопросы изучения и пропаганды узбекской классической и современной литературы на международном уровне”, ПП-3652 от 5 апреля 2018 года-“о мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Союза писателей Узбекистана”, доклад Президента Республики Узбекистан на встрече с творческими представителями Узбекистана 3 августа 2017 года, указания по повышению влияния литературы во время визита 20 мая 2020 года в Ташкент на Аллею писателей и другие материалы, касающиеся данной деятельности в нормативно-правовых актах данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации поставленных задач.

**Связь исследования с приоритетными направлениями науки и технологий республики.** Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики “Социальное, экономическое, культурное, духовно-просветительское развитие информированного общества и демократического государства, развитие инновационной экономики”.

**Степень изученности проблемы.** Специфические поэтические особенности, динамика художественных образов, идейно-социальные аспекты поэзии Рауфа Парфи, представителя узбекской современной поэзии, играют важную роль в раскрытии возможностей узбекской поэзии XX века. Однако с точки зрения узбекской текстологии и литературного источниковедения архивные материалы создателя до сих пор не являлись объектом специального исследования и не изучались в текстологическом аспекте.

Художественные особенности поэзии Рауфа парфи, яркого представителя узбекской современной поэзии, привлекли некоторое внимание узбекского и мирового литературоведения. Последовательное исследование поэзии Рауфа Парфи турецкими учеными примечательно тем, что октябрьский номер Стамбульского журнала “Türk edebiyatı” за 2022 год полностью посвящен поэзии Рауфа парфи.<sup>32</sup>

